

---

## "Qadring baland bo'lsin-ona tilim" shiori ostida ma'naviy-marifiy tadbir bo'lib o'tdi

Buvayda tumani 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi hamda 46-umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Qadring baland bo'lsin-ona tilim" shiori ostida ma'naviy-marifiy tadbirlar o'tkazildi.

Tadbirda o'quvchilar tomonidan turli ko'rgazmali chiqishlar amalga oshiriladi. O'quvchilar tomonidan ijro etilgan raqslar tadbirga o'zgacha ruh baxsh etdi. Ayniqsa o'quvchilar tomonidan ijro etilgan sahna ko'rinishi tadbir jozibadorligini yanada oshirdi.

Tadbirda Viloyat hokimi maslahatchisi S.Tongotarova Tuman hokimi maslahatchisi O.Asqarova va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buvayda tuman bo'limi rahbari M.Jo'rayev hamda maktab jamoasi ishtirok etdi.

Buvayda tuman hokimligi Axborot xizmati□

<https://t.me/+KAbEvOZiupA5N2Yy>

2023-10-17 10:07:45